

## TALABALARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

**Ubaydullayev Alisher Nematilloevich**

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: [alisherubaydullayev2022@gmail.com](mailto:alisherubaydullayev2022@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik tushunchalarining mazmun mohiyatini ta’lim oluvchilarga tushuntirib berish ularni har tomonlama rivojlantirish usullari ketma-ket keltirib o‘tilgan. Bo‘lajak mutaxassis kadrlar uchun egallanishi zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalari orqali ularning kasbiy kompetentlikning rivojlanish bosqichlari hamda kompetensiyalar to‘plami mazmuni keng yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** kompetentlik, kompetensiya, kasbiy kompetentlik, raqamli texnologiyalar, texnologiya, rivojlantirish.

### ABSTRACT

This article consistently explains the methods of complex development of the concepts of competence, competence, professional competence. Through the knowledge and skills necessary for future specialists, the stages of development of their professional competence and the content of the complex of competencies are widely covered.

**Keywords:** competence, competence, professional competence, digital technologies, technology, development.

Mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishdek ulug‘ maqsadga erishish yo‘lida asosiy tayanchimiz bo‘lgan azmu shijoatli yoshlarga e’tibor va g‘amxo‘rlik

ko'rsatish, ularga barcha sohalarda o'z iqtidori va salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berilgan va bu masala doimo davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan faol, intiluvchan, iqtidorli, zamonaviy bilim egalari bo'lgan yoshlarni mustaqil hayotga qadam qo'yayotgan yigit-qizlarni munosib ish va daromad manbai bilan ta'minlash, ularga zamonaviy kasb-hunarlar, IT-texnologiyalarni o'rgatish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida ham talabalarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish metodlarini tanqidiy tahlil qilish, umumlashtirish va o'qitish metodlarining maqbul variantlarini tanlash o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, xususan, raqamli texnologiyalarni o'rgatish muhim pedagogik vazifalardan hisoblanadi. Bugungi kunda davlat ta'lim standartlarida malaka ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan kompetent yondashuvdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqiyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” [1], degan fikrlari ham yangi O'zbekistonimiz yoshlarini o'z fikrlash qobiliyatlarini barqarorlashtirishga qaratilayotgani ham be'jis emas. Shunday ekan biz o'qituvchilar bugungi kunda davr talablari asosida darslarni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil qilishimiz yuksak vazifalardan biri bo'lmog'ligi lozimdir.

“Kompetentlik” (ingilizcha “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish demakdir[2].

“Kompetentlik” tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik “noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, tinglovchilar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq

vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi demakdir. [2]

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi.

Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi.

Kompetensiya bilimlarning umumiyliigi va ularning odamlarda mavjudligini anglatasa, kompetentlik - bu bilimlarni ish jarayonida ishlatish darajasini anglatadi.

Talabaning kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Kasbiy (shu jumladan, pedagogik) kompetentlikka ega bo‘lishda o‘z ustida ishlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalari o‘zini o‘zi tahlil qilish va o‘zini o‘zi baholash orqali aniqlanadi. O‘z ustida ishlash – talaba yoki mutaxassis tomonidan o‘zini ijtimoiy hamda kasbiy jihatdan rivojlantirish, kamolotga erishish yo‘lida maqsadli, izchil, tizimli harakatlarning tashkil etishi lozimdir. Shunday ekan mutaxassisni o‘z ustida ishlashi quyidagi hollarda ko‘rinadi:

- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o‘zlashtirishi orqali ifodalanadi.

**Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda:**

- murakkab jarayonlarda;

- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishi kabi jarayonlarda yaqqol namoyon bo'ladi.

**Bundan tashqari kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis nimalarga ega bo'lmog'i lozim**

- o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llay olmog'i kerak.

Bularning barchasi formula shaklida taqdim etilishi mumkin: **Kompetentlik = Bilaman + Qila olaman + Istayman + Men qilaman.**

**Kasbiy kompetentlikni quyidagicha sifatlari mavjud.**

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda samarali muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi.

3. Shaxsiy kompetensiya - bu pedagogik ishni oqilona tashkil etish qobiliyati bo'lib, vaqtni boshqarish, shaxsiy o'sishga intilish uning asosiy tarkibiy qismlaridir.

Talabanning kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Kasbiy (shu jumladan, pedagogik) kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash va o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki kompetentlikni shakllantirish bosqichma-bosqich va uzluksiz jarayondir. Kasbiy kompetentlik nafaqat bilim darajasi, balki xodimning amaliy ko‘nikmalari, hayotiy tajribasi va shaxsiy fazilatlari jamlanmasidir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI: (REFERENCES)

1. Бем, Н.А. Применение электронных образовательных ресурсов в условиях перехода на новые ФГОС общего образования // Информатика и образование. – 2013. – №7. – С. 20 – 23.
2. N.Muslimov, M.Usmonboeva, D.Sayfurov, A.To‘rayev Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari o‘quv qo‘llanma Toshkent -2015.-5-8 bet
3. Jo‘rayev H.O., Quliyeva Sh.H. va boshq. Texnik ijodkorlik va dizayn. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Turon Zamin Ziyο, 2015. – 240 б.
4. Qahhorov S.Q., Juraev H.O. Modeling of heat-physical processes in solar dryers//Journal of Critical reviews. –Kuala Lumpur, 2020. № 7. – Pp. 9–15.
5. Khazratov F., Juraev Kh. METHODS OF CREATION AND ORGANIZATION OF WORK, TECHNOLOGY FOR CREATING AUTO-NAVIGATION MAPS [Электронный ресурс]: URL: <http://www.jcreview.com/?mno=9704>
6. Xodjiyev S, A.Ubaydulloyev Jurayeva N.O. Funksiya grafigi yordamida uning xossalari o‘rganish bo‘yicha ayrim metodik tavsiyalar ERUS Scientific Journal №4 2022/4, -106-116 bet
7. Босова, Л.Л. Программа по учебному предмету «Информатика» для 7 – 9 классов. Л.Л. Босова, А.Ю.Босова – Москва: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2013.